



**Mening tig' tilgan tilim,
Mening kesilgan tilim,
Bahaybat to'g'on tushib,
Yo'li to'silgan tilim.**

**Qushning unut patiday
To'kilgan unut jonim,
Kitoblarning qatida
Rangi-ro'yi somonim.**

**«Eski o'zbek tili» mas,
Dedilar eskirgan til,
Qo'rqib chiqarmoqqa sas,
Sandiqlarga kirgan til.**

**Senda bodom isi bor,
Senda bobom isi bor,
Bolam na rus, na o'zbek,
Arosat belgisi bor.**

**Besh yuz yillar avvalgi
Xatni men anglayman, bas,
Men bugun aytganimni
Bolam ba'zan tushunmas.**

**Ko'kragimda dod qotgan,
Yaqinlashar katta xavf,
O'z tilini yo'qotgan
Xalq bo'lmasmi yerdan daf.**

**Oldga, safarbarlikka
Qanday yaraydi bolam,
Ortidagi jarlikka
Qanday qaraydi bolam.**

**Uni kim qilib qo'ydim,
Kim bo'ldi og'am-inim,
Tomir-tomirim kuydi,
Sindi bo'g'in-bo'g'inim.**

**Guli unut xalq bo'ldik,
Yo'li unut xalq bo'ldik,
Ommaviy gunglik sodir,
Tili unut xalq bo'ldik.**

**Umrimning shom, kechiga
Shu o'y sanchilib turib,
«Lug'otit-turk» ichiga
Yoshim tomchilab turib
Dedim: Tig' tilgan tilim,
Mening kesilgan tilim.**

Halima Xudoyberdiyeva